

Ichki ishlar organlarida xizmat o‘tashni

huquqiy tartibga solishda mehnat qonunchiligini qo‘llash

O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlaridagi xizmatni o‘tash bilan bog‘liq munosabatlar – xizmatga qabul qilish, maxsus unvonlar berish va ulardan mahrum etish, lavozimga tayinlash, lavozimdan ozod etish va rotatsiya, xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, xodimning boshqa davlat organlari va tashkilotlariga saylanganida (tayinlanganida, safarbar etilganida) xizmat o‘tashi, attestatsiya o‘tkazish, ta’tillar berish, huquqiy va ijtimoiy himoya qilish, xizmat o‘tash rejimini ta’minlash, xizmat muddatlarini uzaytirish, xizmatdan bo‘shatish va xizmatga tiklash kabi ish beruvchi (xizmatga qabul qilish vakolatiga ega ichki ishlar organlari) va xodim (ichki ishlar organi xodimi) o‘rtasidagi munosabatlarni qamrab oladi.

Ichki ishlar organlaridagi xizmatni o‘tash bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus qonunchilik “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonun[1], “Ichki ishlar organlarida xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida”gi nizom[2] va boshqa normativ huquqiy hujjatlardan iborat.

2023-yil 30-aprelda yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi kuchga kirdi[3].

Ta’kidlash kerakki, kodeks ichki ishlar organlarida xizmat o‘tash bilan bog‘liq munosabatlarga aniqroq tartib berdi. Xususan, ushbu kodeksning 11-moddasi 7-qismiga ko‘ra “Kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilarga, shuningdek ichki ishlar va davlat bojxona xizmati organlarida, O‘zbekiston Respublikasi Dav-

[1] lex.uz/acts/3027843.
[2] https://lex.uz/docs/3430641#3453354.
[3] lex.uz/docs/6257288.

Oʻzbekiston Respublikasi ichki ishlar organlaridagi xizmat davlat xizmatining turi boʻlib, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini taʼminlash, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi boʻyicha vazifalarni amalga oshirishdan iborat.

lat xavfsizlik xizmatida, Milliy gvardiyasida xizmat oʻtayotgan harbiy xizmatchilarga (xodimlarga) va ularga tenglashtirilgan boshqa shaxslarga nisbatan mehnat toʻgʻrisidagi qonunchilikning maxsus qonunchilikka zid boʻlmagan qismi tatbiq etiladi"[4]. Ya'ni, qonun normasining belgilashicha, mehnat toʻgʻrisidagi qonunchilikning normalari maxsus qonunchilikka, masalan, "Ichki ishlar organlari toʻgʻrisida"gi qonunga, "Ichki ishlar organlarida xizmatni oʻtash tartibi toʻgʻrisida"gi nizomga zid boʻlmagan taqdirda tatbiq etiladi. Yanada aniqroq aytadigan boʻlsak, ichki ishlar organlarida xizmat oʻtash bilan bogʻliq munosabatlarni tartibga solishda maxsus qonunchilikka ustuvorlik berilgan.



Savol tugʻiladi, Mehnat kodeksining 11-moddasi 7-qismida belgilangan qoida "Normativ huquqiy hujjatlar toʻgʻrisida"gi qonunga qanchalik muvofiq keladi?

"Normativ huquqiy hujjatlar toʻgʻrisida"gi qonunning 18-moddasiga binoan normativ-huquqiy hujjatlar oʻrtasida tafovutlar boʻlgan taqdirda yuqoriroq yuridik kuchga ega boʻlgan normativ-huquqiy hujjat qoʻllanadi. Shuningdek, teng yuridik kuchga ega boʻlgan normativ-huquqiy hujjatlar oʻrtasida tafovutlar boʻlgan taqdirda esa keyinroq qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat qoidalari amal qiladi[5].

Bizning fikrimizcha, Mehnat kodeksi mehnat sohasini huquqiy jihatdan tartibga solishda universal qoidalarni belgila-

Ichki ishlar organlarida xizmat oʻtashni huquqiy tartibga solishda teng yuridik kuchga ega boʻlgan normativ-huquqiy hujjatlar oʻrtasida tafovutlar boʻlganda, mehnat qonunchiligiga ustuvorlik berilishi maqsadga muvofiq.

[4] lex.uz/docs/6257288.
[5] lex.uz/docs/5378966.



“Normativ huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonunning 18-moddasiga binoan normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasida tafovutlar bo‘lgan taqdirda yuqoriroq yuridik kuchga ega bo‘lgan normativ-huquqiy hujjat qo‘llanadi.

ganligi sababli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan yuqoriroq yuridik kuchga ega bo‘lishi kerak. Shundan kelib chiqib, birinchidan, ichki ishlar organlarida xizmat o‘tayotgan harbiy xizmatchilarga (xodimlarga) va ularga tenglashtirilgan boshqa shaxslar uchun mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikning maxsus qonunchilikda (masalan, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunda yoki “Ichki ishlar organlarida xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida”gi nizomda) tartibga solinmagan jihatlari bo‘yicha tatbiq etilishi lozim. Ikkinchidan, agar ichki ishlar organlarida xizmat o‘tash bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi mehnat qonunchiligi va maxsus qonunchilik o‘rtasida tafovutlar yuzaga kelsa, bu nizo “Normativ huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonunning 18-moddasiga asosan hal qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi fikrlar asosida Mehnat kodeksi bilan ichki ishlar organlarida xizmat o‘tashga oid maxsus qonunchilikni birxillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni bildiramiz:

Birinchidan, Mehnat kodeksi 11-moddasining 7-qismidagi “... xizmat o‘tayotgan harbiy xizmatchilarga (xodimlarga) va ularga tenglashtirilgan boshqa shaxslarga nisbatan mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikning maxsus qonunchilikka zid bo‘lmagan qismi tatbiq etiladi” normasini “... xizmat o‘tayotgan harbiy xizmatchilarga (xodimlarga) va ularga tenglashtirilgan boshqa shaxslarga nisbatan mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikning maxsus qonunchilikda tartibga solinmagan qismi bo‘yicha tatbiq etiladi” deb ifodalash zarur.

Ikkinchidan, ichki ishlar organlarida xizmat o‘tashni huquqiy tartibga solishda teng yuridik kuchga ega normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasida tafovutlar bo‘lganda, mehnat qonunchiligiga ustuvorlik berilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar organlarida xizmat o‘tash mehnatga oid munosabatlarning bir turi sifatida ish beruvchi va xodim o‘rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabat hisoblanadi. Mazkur munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus qonunchilik mehnat qonunchiligiga uyg‘un bo‘lishi lozim.

Nuriddin KULDASHEV,
Ichki ishlar vazirligi akademiyasi fuqaroviy-huquqiy fanlar kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori

Lola RADJAPOVA,
Ichki ishlar vazirligi akademiyasi Jinoyat-protsessual huquq kafedrasi katta o‘qituvchisi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)